

ADABIY MATNLARINI O'RGANISH JARAYONIDA LUG'AT ISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlarda ishlatiladigan soʻzlar jonli soʻzlashuvga xos leksikadan ham, ilmiy-ommabop matnlardagi leksikadan ham maʼlum tafovutlarga ega. Bunday farqlar, ayniqsa, nutq uslublaridagi tafovutlar tilshunoslikda atroflicha yoritilgan. Badiiy asarlarda soʻz ishlatilishi qoʻllanish chastotasiga koʻra ham oʻrganilgan. S.Rizayev, N.Boʻronovlarning "Abdulla Qahhor "Sinchalak" povesti tilining chastotali lugʻati" da hisoblab chiqilishicha, mazkur asarda jami 37482 soʻz ishlatilgan boʻlib, bular 10590 lugʻat birligini ifoda etadi. Oʻzbek tili mashgʻulotlarida adabiy matnlarni oʻqib mazmunini tushunish, badiiy idrok etishning toʻgʻriligi, toʻliqligi, chuqurligi koʻp jihatdan ulardagi leksik, hamda grammatik materiallarning qanchalik oʻzlashtirilganligiga bogʻliqdir. "Soʻz boyligini hosil qilish, - deydi L.A.Sheyman, - asl nusxada rus adabiyoti namunalarini oʻzlashtirishdagi oʻquvchilar yoʻlida turgan til "toʻsigʻi" ni engib oʻtishning asosiy yoʻlidir" Oʻzbek adabiyoti namunalarini oʻrganishda, rusiyabon oʻquvchilarning oʻzbekcha nutqi talab darajasida emasligini hisobga oladigan boʻlsak, bu yoʻl yana ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar: chastotali lugʻat, asarning til xususiyatlari, nazariy tomondan, adabiyot nazariyasi, soʻz boyligini, adabiy-nazariy tushunchalarni oʻrganish, oʻzbek adabiyoti namunalari, rusiyabon oʻquvchilar, oʻzbekcha nutqi, jonli soʻzlashuv, badiiy til mahorati, koʻp maʼnolilik, soʻz maʼnolarining koʻchishi

СЛОВАРНАЯ РАБОТА В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРНЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация. В этой статье слова, используемые в художественных произведениях, имеют определенные отличия как от лексики, характерной для живой речи, так и от лексики в научно-популярных текстах. В этой статье слова, используемые в художественных произведениях, имеют определенные отличия как от лексики, характерной для живой речи, так и от лексики в научно-популярных текстах. Такие различия, особенно различия в стилях речи, подробно освещаются в лингвистике. Использование слов в произведениях искусства также изучалось в соответствии с частотой их использования. S.Ризаев, N.Во в "Частотном словаре языка повести "Абдулла Каххор" Синчалак" "роновых подсчитано, что всего в произведении использовано 37482 слова, что составляет 10590 словарных единиц. На занятиях по узбекскому языку правильность, полнота, глубина художественного восприятия литературных текстов, понимание их содержания во многом зависят от того, насколько усвоен в них лексический и грамматический материал. "Формирование словарного запаса, - говорит Л."Ф"Формирование словарного запаса, - говорит Л.А.Шейман, - основной путь преодоления языкового "барьера", стоящего на пути учащихся к овладению образцами русской литературы в оригинале" при изучении образцов узбекской литературы этот путь приобретает еще большее значение, если учесть, что узбекская речь русскоязычных читателей находится не на уровне спроса.

Ключевые слова: частотная лексика, языковые особенности произведения, с теоретической точки зрения, теория литературы, изучение лексики, литературно-теоретических понятий, образцы узбекской литературы, русскоязычные читатели, узбекская речь, живая речь, мастерство художественного языка, многозначность, перенос значений слов

DICTIONARY WORK IN THE PROCESS OF STUDYING LITERARY TEXTS

Annotation. *In this article, the words used in works of art have certain differences, both from the lexical characteristic of living speech and from the lexicon in popular science texts.*

Annotation. *In this article, the words used in works of art have certain differences, both from the lexical characteristic of living speech and from the lexicon in popular science texts. Such differences, especially differences in speech styles, are covered in detail in linguistics. In fiction, the use of the word is also studied according to the frequency of application. S.Rizayev, N.Bo the "Abdullah Qahhor "Sinchalak" frequency Dictionary of the povesti language" of the ronovs calculated that a total of 37,482 words were used in this work, representing 10,590 dictionary units. Understanding the content of reading literary texts in the training of the Uzbek language, the correctness, completeness, depth of artistic perception largely depend on how much lexical, as well as grammatical materials are mastered in them.*

UnUnderstanding the content of reading literary texts in the training of the Uzbek language, the correctness, completeness, depth of artistic perception largely depend on how much lexical, as well as grammatical materials are mastered in them. "Generating vocabulary," says L.A.Sheyman, - the main way to overcome the language "barrier" that stood in the way of readers in mastering the samples of Russian literature in the original" In the study of examples of Uzbek literature, this path becomes even more important, given that the Uzbek speech of Russian-speaking readers is not in demand.

Keywords: *frequency dictionary, linguistic features of the work, theoretical side, theory of literature, study of vocabulary, literary-theoretical conce*

O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy matnlarni o'qib mazmunini tushunish, badiiy idrok etishning to'g'riligi, to'liqligi, chuqurligi ko'p jihatdan ulardagi leksik, hamda grammatik materiallarning qanchalik o'zlashtirilganligiga bog'liqdir. "So'z boyligini hosil qilish, - deydi L.A.Sheyman, - asl nusxada rus adabiyoti namunalarini o'zlashtirishdagi o'quvchilar yo'lida turgan til "to'sig'i" ni engib o'tishning asosiy yo'lidir" O'zbek adabiyoti namunalarini o'rganishda, rusiyabon o'quvchilarning o'zbekcha nutqi talab darajasida emasligini hisobga oladigan bo'lsak, bu yo'l yana ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy asarlarda ishlatiladigan so'zlar jonli so'zlashuvga xos leksikadan ham, ilmiy-ommabop matnlardagi leksikadan ham ma'lum tafovutlarga ega. Bunday farqlar, ayniqsa, nutq uslublaridagi tafovutlar tilshunoslikda atroflicha yoritilgan. Badiiy asarlarda so'z ishlatilishi qo'llanish chastotasiga ko'ra ham o'rganilgan. S.Rizayev, N.Bo'ronovlarning "Abdulla Qahhor "Sinchalak" povesti tilining chastotali lug'ati" da hisoblab chiqilishicha, mazkur asarda jami 37482 so'z ishlatilgan bo'lib, bular 10590 lug'at birligini ifoda etadi. "O'zbek tili" DTSi talabiga ko'ra esa 2-9-sinflarda jami 2100 lug'at birligi o'rganiladi. Ushbu raqamlar oradagi farqlarning juda kattaligini ko'rsatib turibdi. Ushbu farqlanish badiiy matnni tushunishda leksik qamrov bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarning bir jihati, xolos. Boshqa qiyinchiliklar ko'p ma'nolilik, so'z ma'nolarining ko'chishi va boshqa hodisalarga borib taqaladi.

Badiiy asarning til xususiyatlari nazariy tomondan atroflicha yoritilgan. Adabiyot nazariyasiga oid kitoblarda ham, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganishga doir qo'llanmalarda ham, badiiy asar tili tahlil etilgan tadqiqotlarda ham bu masala atroflicha ko'rib chiqilgan. H.Ne'matov va R.Rasulovlar o'zbek tili leksikasini uzviy (komponent) tahlil asosida yoritar ekanlar, so'z ma'nosining tarkibidagi ifoda semalariga "semema tarkibidagi atash semasidan tashqari turlicha qo'shimcha ma'nolarni (uslubiy bo'yoqni, shaxsiy munosabatni, qo'llanish doirasini) anglatuvchi semalar" deb ta'rif beradilar.

M.M.Yo'ldoshev "Cho'lponning badiiy til mahorati" mavzusidagi tadqiqot ishida ma'nodosh, zid ma'noli so'zlarning tasviriy imkoniyatlari haqida atroflicha so'z yuritadi. Chunonchi, "...o'zbek tilida o'ramoq, burkamoq, chulg'amoq, chirmamoq tarzidagi ma'nodosh so'zlar qatoridagi burkamoq so'zida o'ramoq so'ziga nisbatan o'rash belgisi anchayin ortiq, ya'ni uning ma'no qurilishida "hech bir ochiq joyini qoldirmay" degan qo'shimcha ifoda semasi mavjud. Shuning uchun ham ushbu parchada Cho'lpon tegishli mazmun ifodasi uchun o'ramoq so'zini emas, balki ayni burkamoq so'zini tanlash orqali tasvirdagi aniqlik va ekspressivlikni oshirishga muvaffaq bo'lgan"

Ko'pincha, asarda birdaniga uchta ma'nodosh so'z yonma-yon qo'llanadi va ifoda semalari belgining darajalangan holda ifodalanishiga xizmat qiladi. "Romanda frazeologik ma'nodoshlikning ham go'zal namunalari mavjud. Tilimizdagi achchig'ini chiqarmoq va g'ashini qo'zg'atmoq iborolari o'zaro ma'nodosh, ular romanda bir qadar bir-biriga qarshilantirilgan holda qo'llangan: *Buning uchun so'fining achchig'ini chiqaradigan emas, uning bir oz g'ashini qo'zg'atadigan bir gap aytib qo'ydi*".

Leksik-frazeologik ma'nodoshlik romanda muayyan mazmunni quyuc ekspressiya bilan ifodalashga xizmat qiladi.

Cho'lpon romanida zid ma'noli so'zlar asosida yuzaga keltiriladigan tazod, zidlantirish, qarshilantirish san'atining betakror namunalari yaratgan. Zid ma'noli so'zlar qatoridan foydalangan holda yozuvchi turli tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlarni qarshilantirish orqali ularni yanada ta'kidlash imkoniga ega bo'ladi. Romanda foydalanilgan lisoniy sathdagi leksik zid ma'nolilik ko'proq ot, sifat, ravish, fe'l turkumlariga oiddir. Misollar: Opa – ba'zida do'st, ba'zida dushman... Singil ham shunday!

Cho'lpon romanda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta'minlash maqsadida tarixiy so'zlardan o'rinli va unumli foydalangan.

Har qanday badiiy nutq nazariyasida ko'chimlar markaziy figura sifatida qaraladi, chunki ko'chimlarning aksariyati badiiy nutqda emotsionallik, ekspressivlik, ta'sirchanlik, obrazlilik kabi muhim sifatlarni beradi. Har qanday o'xshatishning lingvopoetik asosini o'xshatish etaloni tashkil etadi. O'xshatishning originalligi o'xshatish etalonining originalligiga ko'ra yuzaga keladi. Nutqimizdagi ayiqday qo'pol, qo'yday yuvosh, tulkiday ayyor, paxtaday oq, toshday qattiq kabi bir qancha o'xshatishlardagi o'xshatish etalonlari originalligini yo'qotganligi uchun an'anaviy o'xshatishlar deb qaraladi.

M.M.Yo'ldoshevning ta'kidlashicha, "Har qanday badiiy nutq nazariyasida ko'chimlar markaziy figura sifatida qaraladi, chunki ko'chimlarning aksariyati badiiy nutqda emotsionallik, ekspressivlik, ta'sirchanlik, obrazlilik kabi muhim sifatlarni beradi. Har qanday o'xshatishning lingvopoetik asosini o'xshatish etaloni tashkil etadi. O'xshatishning originalligi o'xshatish etalonining originalligiga ko'ra yuzaga keladi. Nutqimizdagi ayiqday qo'pol, qo'yday yuvosh, tulkiday ayyor, paxtaday oq, toshday qattiq kabi bir qancha o'xshatishlardagi o'xshatish etalonlari originalligini yo'qotganligi uchun an'anaviy o'xshatishlar deb qaraladi".

M.M.Yo'ldoshev M.Mukarramovning an'anaviy o'xshatishlar obrazlilik va emotsional-ekspressivlik xususiyatlarini yo'qotgan degan fikrini eslar ekan, tildagi har qanday so'z yoki iborani tasviriylik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog'liq deb alohida ta'kidlaydi. Cho'lpon bunday o'xshatishlarga, ular bilan bir qatorda tasvirni kuchaytiruvchi turli vositalarni keltirib, go'yoki yangidan ekspressiv nur beradi.

Tadqiqotchi metafora xususida to'xtalib, mutaxassislarining bu vositadan nomi yo'q bo'lgan narsa-tasavvurlarga nom berish maqsadida foydalanish faqat ana shu ehtiyojgagina bog'liq emas, u inson tabiatidagi obrazli ifodaga o'chlik bilan aloqador, nomi bor narsalarni ham metaforik yo'l bilan ifodalashga insonda ichki bir tabiiy intilish mavjud degan fikrlariga to'xtalib, bunday deydi: "Metaforalar, ayniqsa, xususiy-muallif metaforalari ko'proq estetik maqsad, ya'ni borliqni sub'ektiv munosabatni qo'shib ifodalagan holda nomlash asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ularda hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi"... "Asarda yaratilgan ba'zi metaforalar o'sha davr ijtimoiy hayotiga yangi kirib kelgan tushunchalarni ifodalaydigan so'zlarga asoslangan. Masalan, *Muncha sergap ekan bu xotin? – dedi Miryoqub. – Gramofon-a!*".

Badiiy asarning til xususiyatlari haqida gapirganda shuni ham nazardan qochirmaslik kerakki, poetik soʻz koʻp maʼnoli boʻladi, lekin ushbu oʻzbekcha soʻzning rus tilidagi muqobili poetik boʻlmasligi mumkin. Bu oʻrinda oʻqituvchi oʻquvchilarni ruscha muqobillar orasidan jumlagi badiiylik baxsh etadigan soʻzlarni bilib, aniq tanlashga oʻrgatishi, ularda kezi kelganda oʻzi tarjima qilib tushunadigan oʻzbekcha gapning ruscha ifodasida ham hissiyot sezilib turishiga eʼtibor berish odatini hosil qilishi lozim. Chunki badiiy matnda soʻz qoʻllash soʻzning eng asosiy xususiyati - koʻp maʼnolilikka asoslanadi. Bunday soʻz qoʻllash barqaror boʻlmay, doimiy ravishda oʻzgarib turadi.

Adabiyotning ayrim tushunchalari til darslarida yaxshiroq oʻzlashadi. Masalan, epitet: *oltin qoʻllar; tucha mrachnaya*.

Shu bilan birga soʻzlarning assotsiativ aloqalariga hamma vaqt eʼtiborni qaratish, shu assotsiatsiyalarni uygʻotib turish muhim boʻlib, ayni shu erda kichik yoshdagi oʻquvchilarning faoliyatiga rahbarlik qilish imkoniyatlari yashiringan. Bu faoliyat badiiy asarni estetik idrok etishga yoʻnlatirilishi kerak.

A.T.Rubayloning izohlashicha, "Badiiy soʻz bilan nutqning mutanosibligi muayyan qiyinchiliklar tugʻdiradi. Ana shu mutanosiblikni tushunishga oʻrgatish estetik jihatdan ongli oʻqish koʻnikmalarini rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi". Shuning uchun jonli nutq tahliliga ham eʼtibor berish lozim. Soʻzning jarangdorligi shunda toʻliq namoyon boʻladi. Oʻquvchi eshitib qabul qilish va his etishga oʻrganadi.

"Metodika obʼyasnitelnogo i literaturnogo chteniya" kitobida ilgari surilgan quyidagi fikr oʻrinli: "Ruscha soʻzlar (bizning holatda – oʻzbekcha soʻzlar) ona tilining shakllari bilan emas, balki tushunchalari bilan assotsiatsiyalanishi kerak. Ayni koʻruv obrazi oʻzga til shakllarining obʼektiv voqelik buyumlari, hodisalari bilan bevosita assotsiativ bogʻlanishlarini uygʻotadi, oʻquvchilarning ushbu tilda obrazli va tushunchali fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi".

Taʼkidlash joizki, oʻzbek tili mashgʻulotlarida rusiyabon talabalarning mustaqil fikrlashlariga monelik koʻrsatadigan holatlar juda koʻp. Masalan, adabiy matnda uchragan notanish soʻzni lugʻatdan qidirib topish, topganda esa bu soʻzning ruscha muqobili ikki va undan ortiq boʻlganda, qay birini tanlash kerak degan vazifa yuzaga keladi. Bu vazifani toʻgʻri hal etish, mustaqillik namoyon qilish uchun talabada oʻz kuchiga ishonch hissi namoyon boʻlishi kerak. Oʻz kuchiga ishonchi qatʼiy boʻlmagan oʻquvchining mustaqil qaror qabul qila olmasligi esa hammaga ayon haqiqat.

Adabiy asarda soʻzga badiiy obrazlilik yuklanadi. Bu holat tarjimada ham uslubiy boʻyoqli muqobillarni tanlashga undaydi. Grammatik vositalar xususida ham xuddi shu vaziyatga duch kelish mumkin. Xullas, adabiy materialni oʻrganishda qadam-baqadam mustaqil qaror qabul qilib borishni taqozo etadigan jihatlar nihoyatda koʻp.

Adabiy matnni oʻqish jarayonida talay leksik va grammatik qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan quyidagi ish turlari bajarilishi taqozo etiladi:

1. Yangi, shuningdek, maʼnosi unutilgan soʻzlar ustidagi lugʻat ishi.
2. Matndagi gaplar mazmunini tushunish yoʻlidagi leksik va grammatik tahlil ishlari.
3. Tasviriy ifodalar ustidagi ishlar.

Oʻzbek tilini oʻrganish mashgʻulotlarida adabiy material taʼlim va tarbiyaning muhim va salmoqli omili sanaladi. Bir tomondan, leksik va grammatik materiallardan real muloqotga yaqin sharoitda foydalanish adabiyot orqali oson kechadi, ikkinchi tomondan, leksik materiallar bilan tanishishda oʻziga yarasha ayrim qoʻshimcha qiyinchiliklar ham tugʻiladi. Lekin, nima boʻlgan taqdirda ham, badiiy asarlarni oʻrganish oxir oqibatda badiiy boʻlmagan matnlarni oʻqishni yengillashtiradi.